

## BARKAMOL SHAXS FAZILATLARINI TARKIB TOPTIRISHDA TARBIYA METODLARILARINING O'RNI

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Maktabgacha ta’lim” fakulteti Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi dotsenti,

Tojiboyeva Ozoda Alisher qizi

“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va

pedagogikasi” yo’nalishining 4 kurs talabasi

Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o’zida aks ettiradigan o’nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o’ziga xos xarakteriga ko’ra ishontirish, mashq, rag’batlantirish va tanbeh berishga bo’linadi. Mazkur holatda metodning umumiylar xarakterli belgisi u o’zida yo’nalganlikni, o’ziga xoslikni, qo’llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko’proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiylar mustahkam tutashib ketadi. U o’zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o’quvchilarning hulq-atvorini rag’batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Makarenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirishli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o’rgatish va mashq metodlari, rag’batlantirish, to’sqinlik qiluvchi, boshqarish, o’zini-o’zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko’ra metodlarni ikki guruhga bo’lish mumkin:

1. Ahloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g’oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.
2. Hulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog’liq bo’ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo’ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

Bolalar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariiga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda bolalarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf bolalari bilan ishlash jarayonida bolalarni ular uchun yangi bo'lgan mehnat faoliyatini o'rgatishda bolalarning hulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, ularga bolalarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

**1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.** Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

**2. Tarbiya mazmuni.** Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

**3. Tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish.** U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarining yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darjasini o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

**4. Jamoaning shakllanganlik darajasi.** O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatlari hamkorligining zaruriy sharti.

**5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari.** Umumiylar metodlar, umumiylar dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

**6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar.** Unga moddiy, psixofiziologik, sanitargigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rindi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

**7. Tarbiya vositalari.** Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mayjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

**8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.** Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchida ko'p kuch ishlatalishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar atarsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.

**9. Tarbiya vaqt.** Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning

«ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo’linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o’rgatish bilan bog’liq.

**10. Kutiladigan natija.** Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo’lishi kerak. Buning uchun qo’llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko’ra bilish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. D.A.Choriyeva “Milliy tarbiya” O`quv qo`llanma.2023 y.
2. K.Turg`unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov “Ijtimoiy pedagogika asoslari” 2008 y.
3. X.Meliyev, O.Jamoldinova “Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati” O`quv qo`llanma 2021 y.
4. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
5. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
6. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
7. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
8. Чориева, Д. А., & Ражбова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
9. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАҲСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти.

Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.